

**Ilmiy rahbar: Qurbanboyev Jurabek Erubayevich**

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Bank ishi va buxgalteriya kafedrasи

iqtisodiy fanlar nomzodi dotsent

**Rixsillayeva Madinaxon Izzatilla qizi**

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistranti

Tel: +998917873555

Email: [allavorovamadina55@gmail.com](mailto:allavorovamadina55@gmail.com)

---

## **BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR HISOBI VA NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Annotatsiya:** Davlat byudjetiga to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilib, ularga tegishli respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, mahalliy byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarida aks ettiriladi. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilib, ular mazkur tashkilotlarning daromadlarida aks ettiriladi.

**Kalit so'zlar:** budjet tizimi, axborotlarning ochiqligi, zamonaviy axborot tizimlari, metodologik asoslar, mablag'lar.

---

### **KIRISH**

Respublikamizda budjet tizimini isloh etishda "budjet hisobi tartibini Davlat sektorida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IPSAS) uyg'unlashtirish" (PQ-3917, 2018), xalqaro standartlar talabalaridan kelib chiqib budjet ijrosiga oid axborotlarning ochiqligini ta'minlash, budjet tizimida mablag'larning sarflanishi bo'yicha hisobdorlikni kuchaytirish, budjet ijrosi jarayonida zamonaviy axborot tizimlarini qo'llash ko'lamini kengaytirishni talab etmoqda. Shu bilan birga, budjet tizimi budgetlari ijrosi hisobini tizimli tarzda kassa usulidan hisoblash usuliga o'tkazish orqali budjet hisobotlari axborotlarining tahliliy imkoniyatlarini oshirishni taqozo qilmoqda. O'z navbatida, ushbu jihatlar budjet tashkilotlarida budgetdan tashqari mablag'lar hisobi va hisobotiga oid mavjud metodologik asoslarni chuqur tadqiq etish hamda takomillashtirishni talab etmoqda. Budjetdan tashqari mablag'lar tushunchasiga iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan turli hil fikrlar va qarashlar bildirib o'tilgan. Jumladan prof. A.Ostonokulov budjet tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'larini smetalarda nazarda tutilgan maqsadlarda sarflanishini ta'minlash, qo'shimcha moliyalashtirish manbalari mavjud bo'lgan hollarda amalga oshiriladigan xarajatlarni rejaga nisbatan ko'paytirishni nazarda tutishning zarurligini asoslagan (A.Ostonokulov, 2021). Iqtisodchi olim Sh.Qurbanov esa, budjet tashkilotlari, moliya bo'limlari, g'aznachilik bo'linmalari tomonidan joriy va jamlanma moliyaviy hisobotlarni tuzishda har bir jamg'arma bo'yicha ma'lumotlarni alohida shakllantirishga hamda axborotlarning ishonchlilagini ta'minlashga olib kelgan. Shuningdek, ushbu takliflarning qabul qilinishi budjet tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari hisobi bo'yicha UzASBO va DMBAT dasturiy majmualarini integratsiya qilish imkonini bergan (Qurbanov Sh, 2022). O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligi tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalariga "Oliy ta'lim muassasalarida budgetdan tashqari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish" tartibi asosida buxgalteriya hisobini tashkil qilish hamda hisob-kitoblarini yuritish, mablag'larning moliyaviy nazoratini samarali tashkil etish uslubiyoti takomillashtirilgan, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida "Universitet 3.0." tizimini joriy etish maqsadida ular qoshida tashkil etilgan Spin-off korxonalariga "Innovatsion jamg'arma" tomonidan qaytarilish sharti bilan ajratilgan

mablag'lar “bir moliya yilidan ortiq” yoki “bir moliya yili davomida” shakllarida ssuda tarzida aks ettiriladigan uzoq muddatli ssuda qismiga (bir moliya yilidan ortiq): “211120 Budjet tashkilotining shuba korxonalarga qo‘yilgan uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalari”, qisqa muddatli ssuda qismiga (bir moliya yili davomida): “121120 Budjet tashkilotining shuba korxonalarga qo‘yilgan qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalari” analitik schotlarida yuritish uslubiyoti tavsiya etilgan (Xojayev A, 2023).

## METODLAR

Jahonda budjet tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'ları hisobi va hisobotining nazariy hamda metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, jumladan buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida budjet hisobi va hisobotining kassa hamda hisoblash metodlari takomillashtirilgan (International Public Sector Accounting Standards Board, 2023);

- budjet tizimida budgetdan tashqari jamg‘armalar to‘g‘risidagi axborotlarning ochiqligini ta’minlash bo‘yicha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun uslubiy tavsiyalar shakllantirilgan (International Monetary Fund, 2022);
  - budjet tizimini boshqarishda kuchli ichki nazorat muhitini yaratish, hisobdorlik va axborotlarning ochiqligini ta’minlashda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini joriy qilishning bir va ko‘p bosqichli yo‘nalishlari ishlab chiqilgan (International Federation of Accountants IFAC);
  - davlat budjeti ijrosi va uning buxgalteriya hisobini isloh qilishning Anglo-Amerika, Yevropa va Xitoy modellari ishlab chiqilgan (Organisation for Economic Cooperation and Development, 2023);
- global inqiroz sharoitida budjet tashkilotlari mablag‘larining sarflanishida hisob axborotlarining ishonchliligi davlatlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi isbotlangan (Pricewaterhouse Coopers, 2021);
- budjet tashkilotlarida budjet va budgetdan tashqari mablag‘larni hisobga olishning modifikatsiyalashgan usullari ishlab chiqilgan (London universiteti, 2020);
  - budjet tashkilotlarida budgetdan tashqari mablag‘lar hisobini tashkil etish va nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-uslubiy asoslari nazariy jihatdan takomillashtirilgan (Janubiy Rossiya davlat iqtisodiyot va servis universiteti, 2021);
  - budjet tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag‘lari hisobini yuritishda daromad va xarajatlarning muvofiqligi tamoyiliga amal qilishning zarurligi isbotlangan (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi moliya universiteti, 2021).

## NATIJALAR

Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg‘armasiga byudjet tashkilotlarining mahsulot (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olingan daromadlari, tushgan tushumlari va ularni ishlab chiqarish bo‘yicha xarajatlar o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi. Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg‘armasi daromadlari shakllanishi manbalari quyidagilardir:

- hisobot choragining so‘nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo‘yicha tejalgan mablag‘lar, kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag‘lar bundan mustasno;
- faoliyat ixtisosligi bo‘yicha mahsulot (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;
- byudjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag‘larning bir qismi;
- belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag‘lar;
- homiylikdan olingan mablag‘lar hisobidan shakllantiriladi.

Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasiga tibbiyot tashkilotlarining mahsulot (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olingan daromadlari mahsulot

(ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va ularni ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Vazirliliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadlari: vazirliliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadlari belgilangan tartibda davlat bojlari, yig'imlar va soliq bo'lмаган to'lovlар, ma'muriy jarimalar hamda moliyaviy sanksiyalardan ajratmalar hisobidan shakllantiriladi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larini undiriladigan

to'lovlар hisobidan shakllantirish quyidagi mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi:

- o'quvchilar va tarbiyalanuvchilar davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim mакtabларining kuni uzaytirilgan guruhlarida, mакtab-internatlarda, olimpiya zaxiralari kollejлari va boshqa ta'lim muassasalarida saqlab turilganligi uchun;
- o'quvchilar bolalar musiqa va san'at mакtabлари hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim olganligi uchun;
- oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olganlik uchun;
- statsionar davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotganlar tarkibi ovqatlanishi uchun;
- qонун hujjатларiga muvofiq boshqa turдagi undiriladigan to'lovlар hisobidan shakllantiriladi. Undiriladigan to'lovlarning miqdorлari, ularni kiritish va ulardan foydalanish tartibi, shuningdek undiriladigan to'lovlар bo'yicha imtiyozлar qонун hujjатлари asosida belgilanadi va tartibga solinadi.

#### **– 1.1-rasm. Byudjetdan tashqari mablag'lar.<sup>1</sup>**

Yuqorida keltirilgan byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larining kelib tushishi va ular hisobidan xarajatlar amalga oshirish nazorati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi, uning hududiy boshqarmalari va joylardagi moliya organlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarida hisobvaraqlardagi byudjetdan tashqari mablag'lar hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:


- hisobvaraqlardagi byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjатлар asosida tashkil etish;
- byudjet tashkilotlari hisobvaraqlardagi byudjetdan tashqari mablag'лarni maqsadli sarflanishini ta'minlash;
- boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha muomalalrn hujjatlashtirish va hisob registrлarida aks ettirish;
- byudjet tashkilotlari hisobvaraqlaridagi boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar to'g'risidagi to'liq hamda aniq, ma'lumotлarni shakllantirish;
- byudjet tashkilotlarining boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi ma'lumotлarini umumlashtirish va hisobotлarni tuzish.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Magistrant tomonidan ishlab chiqilgan

<sup>2</sup> S.U Mehmonov "Byudjet hisobi" o'quv qo'llanma. Toshkent 2012

Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag`lardan foydalanishning o`ziga xos hususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkun:

- byudjetdan tashqari mablag`lardan foydalanish kassa usulida amalga oshirilishi;
- byudjetdan tashqari mablag`lar manbalari bo`yicha alohida shahsiy hisob varaqalarida aks ettirilishi;
- byudjetdan tashqari mablag`lar tushumi hamda ular hisobiga xarajatlarni byudjet tasnifi asosida aks ettirilishi;
- byudjetdan tashqari mablag`lar smetalar asosida xarajat qilinishi;
- byudjetdan tashqari mablag`lardan foydalanishda qat`iy qonunchilik talablariga amal qilish.



## XULOSA

Byudjetdan tashqari mablag`lardan foydalanishda kassa usulidan foydalanish, ya`ni mablag`larni hisobraqamiga kelib tushgan va ular bo`yicha xarajatlar amalga oshirilgan vaqtagina tan olishni tushunish mumkun. Bundan ko`rinadiki byudjetdan tashqari mablag`lar bo`yicha oldindan, mablag` kelib tushish sanasidan oldin, ushbu mablag`lar bo`yicha operatsiya amalga oshirishning iloji yo`q. Bu esa debitorklik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish bilan bir qatorda byudjet mablag`laridan muntazam foydalanishga sabab bo`ladi.

Qonun hujjalarda byudjetdan tashqari mablag`larning sarfi bilan bog`liq belgilangan tartibdan kelib chiqib, byudjetdan tashqari mablag`lar manbalari bo`yicha alohida hisobvaraqlarda yuritiladi va ularning smetali asosda xarajat qilinishi, ushbu mablag`lar nazorati va maqasadli sarflanishiga oydinlik kiritadi.

Qonunchilikda ushbu mablag`lar bo`yicha o`rnatilgan tartiblar, mablag`larning o`zboshimchalik va boshqa maqsadlar uchun foydalanilmaslikni oldini olishga xizmt qiladi.

## Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Magistrant tomonidan ishlab chiqilgan
2. S.U Mehmonov "Byudjet hisobi" o`quv qo'llanma. Toshkent 2012

3. (Ostonokulov, 2021). Budjet tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti uslubiyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2021. – 64 b.;
4. (Bakaybayeva, 2020). O‘zbekiston Respublikasida budjet hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish yo‘llari. i. f. d. dis. avt. –T.: 2020.
5. (Ibragimov, 2018). Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta’lim muassasalari misolida). iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. –T.: 2018. – 54 b.;
6. (Mehmonov, 2016). Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: “Iqtisod moliya”., 2016.;
7. (Ostanaqulov, 2010). Davlat sektori va buxgalteriya hisobi. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2010. 8. (G‘aniyev, 2008). Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish (ta’lim tizimi misolida). iqt. fan. nom. dis. avtoreferati. –T.: O‘z R BMA., 2008. 28 b.
8. (Tuychiyev, 2019). Budjet tashkilotlarida budjet xisobi. Darslik. “Iktisod-moliya” 2019. 429 b.